

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

H.V.Ivонина, Ф.Ч.Бойко

Сравнительный анализ моделей организационного туризма в Европе, СНГ и Азии: институциональные уроки для Узбекистана 5

Е.В.Голышева, Ш.Г.Хошимов

«Зигзагообразное» планирование туристских маршрутов как инструмент пространственного развития и устойчивости туризма (на примере Ферганской области) 13

FALSAFA

S.A.Muradov

Hind o'lkasida tasavvuf ta'limotining rivojlanish tendensiyasi 22

L.S.Yuldasheva

Abu Ali ibn Sinoning "Urjuza" she'riy dostonining falsafiy tahlili 26

M.T.Xidirov

Postnoklassik ilmiy tafakkur shakllanishida bilim va faoliyat dialektikasining o'rni 30

D.I.Saydullayeva

Axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi 35

F.A.Yuldashev

Raqamli jamiyat sharoitida shaxs ehtiyoj-manfaatlari va ekzistensial jarayonlar: ijtimoiy-falsafiy tahlil 38

R.Orziboyev

Yoshlar g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirish integratsiyasida musiqiy merosning o'rni 43

C.Бусала

Изучение искусственного интеллекта через призму философского пространства и времени 47

Y.A.Xudoyqulov

Zamonaviy jamiyatda harbiy fanni yuksaltirishga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar metodologiyasi 51

R.S.Raupova, N.Rajabova

Imom ash-Shotibiyning qiroat ilmidagi xizmatlari va uning ilmiy merosi 55

E.I.Tursunaliyeva

Ijtimoiy davlat fenomeni: nazariy yondashuvlar va xalqaro tajriba 58

G.A.Raximova

Milliy madaniyatni rivojlantirish va saqlab qolishning ijtimoiy omillari 62

M.Z.Jumayeva

Globalashuv sharoitida yangi O'zbekiston: ulkan maqsadlar va zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim xususiyatlari 67

A.A.Qambarov

Is'hoqxon to'ra ibrat ilmiy merosining falsafiy tahlili 72

B.S.Ganiyev, I.B.Xolmatov

Jamiyatimiz yangi taraqqiyot bosqichida sportni – ijtimoiy fenomen sifatida qaror topishining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari 77

L.E.Tursunova

Tilab Mahmudovning milliy estetik merosga qo'shgan hissasi 83

A.A.Mo'ydinov

Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini 87

M.K.Soipova

Fazl ibn Ahmad qarashlarida axloqiy masalalarning falsafiy tahlili 93

M.K.Soipova

Yangi O'zbekistonda yoshlarni komillikka erishishida Fazl ibn Ahmad merosining o'rni 96

G.A.Qamariddinova

"Rashahotu aynil-hayot" asarida insonparvarlik va ma'rifatli jamiyat konsepsiyasi 100



UO'K: 342.7:321:316

IJTIMOIY DAVLAT FENOMENI: NAZARIY YONDASHUVLAR VA XALQARO TAJRIBA

ФЕНОМЕН СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТTHE PHENOMENON OF THE SOCIAL STATE: THEORETICAL APPROACHES AND
INTERNATIONAL EXPERIENCETursunaliyeva E'zoxaxon Ilxomjon qizi 

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy ish kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ijtimoiy davlat fenomenining nazariy va amaliy mohiyati tahlil qilingan. Davlatning asosiy vazifalarini faqat siyosiy boshqaruv bilan cheklanib qolmasdan, balki ijtimoiy adolatni qaror toptirish, aholining turmush darajasini yuksaltirish va zaif qatlamlarni himoya qilishga ham qaratilishi zarurligi asoslab berilgan. Maqolada Aristotel, Jon Lokk, Jon Styuart Mill, Jon Rawls kabi mutafakkirlarning adolat nazariyasi haqidagi qarashlari, zamonaviy ijtimoiy davlat tamoyillari va turli mamlakatlardagi amaliy tajribalar o'rganilgan.

Аннотация

В статье анализируется теоретическая и практическая сущность феномена государства всеобщего благосостояния. Утверждается, что основные задачи государства не должны ограничиваться только политическим управлением, но и обеспечением социальной справедливости, повышением уровня жизни населения и защитой уязвимых. В статье рассматриваются взгляды таких мыслителей, как Аристотель, Джон Локк, Джон Стюарт Милль и Джон Ролз, на теорию справедливости, принципы современного государства всеобщего благосостояния, а также практический опыт разных стран.

Abstract

In the article, the theoretical and practical essence of the phenomenon of the welfare state is analyzed. It is argued that the main tasks of the state should not be limited only to political governance, but also to ensuring social justice, improving the standard of living of the population, and protecting the vulnerable. The article examines the views of such thinkers as Aristotle, John Locke, John Stuart Mill, and John Rawls on the theory of justice, the principles of the modern welfare state, as well as the practical experience of different countries.

Kalit so'zlar: ijtimoiy adolat, huquqiy kafolat, ijtimoiy himoya tizimi, ijtimoiy tenglik, inson qadri, distributive adolat, welfare state, Yangi O'zbekiston, mahalla instituti.

Ключевые слова: социальная справедливость, правовая гарантия, система социальной защиты, социальное равенство, человеческое достоинство, распределительная справедливость, государство всеобщего благосостояния, Новый Узбекистан, институт махалли.

Key words: social justice, legal guarantee, social protection system, social equality, human dignity, distributive justice, welfare state, New Uzbekistan, mahalla institution.

KIRISH

Zamonaviy davlat va jamiyat taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy adolat, fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda aholining farovonligini ta'minlash masalalari eng dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Davlatning vazifalari faqat huquq-tartibotni saqlash, mudofaa va tashqi siyosat bilan cheklanib qolmasdan, balki fuqarolar uchun munosib turmush darajasini ta'minlashga ham qaratilgan bo'lishi zarur. Shu ma'noda "ijtimoiy davlat" fenomeni jamiyat taraqqiyoti va siyosiy institutlarning rivojlanishida alohida o'rin tutadi.

Ijtimoiy davlat tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmida keng nazariy asosga ega bo'ldi va bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning siyosiy-iqtisodiy modelida asosiy prinsip sifatida qaralmoqda. U nafaqat huquqiy kategoriya, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy tenglik va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini ta'minlaydigan konseptual modeldir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"Ijtimoiy davlat" (inglizcha "welfare state", nemischa "Sozialstaat") – bu davlatning asosiy maqsadi nafaqat fuqarolar huquq va erkinliklarini huquqiy jihatdan kafolatlash, balki ijtimoiy

FALSAFA

tengsizlikni kamaytirish, ijtimoiy himoya tizimlarini shakllantirish va aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'lgan davlat modelidir.

Nazariy manbalarda ijtimoiy davlat g'oyasi bir necha bosqichda shakllangan:

- Aristotel davridayoq "adolatli jamiyat" tushunchasi ilgari surilgan;
- Tomas Gobbs va Jon Lokk kabi faylasuflar davlatning fuqarolar xavfsizligi va erkinliklarini ta'minlashdagi rolini asoslagan;

- Jon Styuart Mill tenglik va erkinlik muvozanatining ahamiyatini ko'rsatgan;

- Jon Ravls "Adolat nazariyasi" asarida resurslar taqsimoti va imkoniyatlar tengligi asosida ijtimoiy adolat tushunchasini keng izohlab berdi.

Ijtimoiy davlatning mohiyatini tashkil etuvchi asosiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

1. Ijtimoiy adolat – fuqarolar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash va iqtisodiy resurslarni adolatli taqsimlash.

2. Ijtimoiy himoya – aholining ehtiyojmand qatlamlariga (nogironlar, keksalar, bolalar, kam ta'minlanganlar) davlat tomonidan yordam ko'rsatish.

3. Iqtisodiy barqarorlik – davlat tomonidan bandlikni rag'batlantirish, kambag'allikni kamaytirish va mehnat borozini qo'llab-quvvatlash.

4. Huquqiy kafolat – konstitutsiya va qonunlarda ijtimoiy huquqlarning mustahkamlanishi

5. Demokratik boshqaruv – fuqarolarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlash.

Ijtimoiy davlat – insoniyat tarixiy taraqqiyotining muayyan davri mahsuli, davlatchilik rivojining maxsus bosqichi. Ijtimoiy davlat g'oyasi, eng avvalo, qadimgi Sharqda, xususan, mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan. Buyuk bobomiz Abu Nasr Farobiy ma'rifatli insonlar jamoasini, ideal jamiyat g'oyasini "Fozil odamlar shahri" asarida ko'rsatib o'tgan.

Ijtimoiy davlat barpo etish Alisher Navoiyning ham egzu orzusi bo'lgan. U insonlarning baxtli yashashi uchun munosib ijtimoiy muhit yaratish, farovon jamiyat qurish, ma'rifatli davlat boshqaruvi, adolatparvar va odil hukmdor, insonlar o'zaro mehr-oqibatli va bag'oyat ahloqiy bo'lish kabi qarashlarni ilgari surgan edi. Shunga o'xshash g'oyalarni Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy Sheroziy, Ahmad Donish singari qator allomalarimiz ijodida ko'rish mumkin.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy davlat konsepsiyasi zamonaviy siyosiy-iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida inson omiliga, ijtimoiy barqarorlik va adolatga asoslanadi. Ijtimoiy davlatning shakllanishi nafaqat iqtisodiy resurslarning taqsimotini adolatli tashkil etish, balki inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar yaratish bilan chambarchas bog'liqdir.

O'rganilgan manbalar asosida aniqlanishicha, ijtimoiy davlat g'oyasi XIX-XX asrlarda kapitalistik tizimning ijtimoiy ziddiyatlarini yumshatish zarurati bilan paydo bo'lgan. Bu modelning asosiy maqsadi – jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirish, ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olish va fuqarolarning farovon hayotini kafolatlashdan iborat bo'lgan. Ayniqsa, Jon Rawls, Amartya Sen va Nussbaumlarning adolat va imkoniyatlar tengligi haqidagi qarashlari bu yo'nalishda nazariy poydevor yaratgan.

Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy davlat konsepsiyasi turli modellar orqali amalga oshiriladi. Masalan, Skandinaviya davlatlarida "farovonlik davlati" modeli hukm surib, aholining barcha qatlamlariga keng qamrovli yordam ko'rsatiladi. Germaniya modelida esa ijtimoiy sug'urta tizimi keng rivojlangan bo'lib, fuqarolar o'z mehnat faoliyati davomida sug'urta badallari to'lash orqali keksalikda yoki ishsizlik davrida himoya ostida bo'ladi. AQSh modeli esa bozor mexanizmlariga asoslangan bo'lib, yordam asosan nogironlar, ishsizlar va qariyalar uchun maxsus ijtimoiy dasturlar joriy qilingan.

Hozirgi zamon tajribasiga ko'ra, Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy davlat g'oyasi turli normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan. Xususan, Germaniyada uning ijtimoiy davlat ekani Konstitutsiya darajasida belgilangan. Shuningdek, ijtimoiy davlatning Skandinaviya va continental modellari ham mavjud bo'lib, bunda davlatlar o'z fuqarolarining ijtimoiy farovonligi, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalariga, bolalar va yoshlarga, keksalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish uchun mas'ul bo'ladi.

Ijtimoiy davlat tor ma'noda o'z faoliyatida aholiga nafaqalar to'lashni, jamiyatga xizmat ko'rsatishni amalga oshiradi va uy-joy bilan ta'minlash bilan bog'liq masalalarni hal qiladi. Keng ma'noda nafaqat aholini bevosita qo'llab-quvvatlashga qaratilgan sezilarli darajada ko'p sonli dasturlarni, balki iqtisodiyotni boshqarish va tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni, shu

jumladan, bandlik va u bilan bog'liq masalalarni hamda kompleks makroiqtisodiy boshqaruvni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasida ham ijtimoiy davlat tamoyillari konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan. 2023-yilda qabul qilingan yangi Konstitutsiyasida davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini kafolash, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va aholining turmush darajasini oshirish ko'rsatib o'tilgan.

Mamlakatimiz tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, yurtimizda ijtimoiy davlat g'oyasi "Yangi O'zbekiston" siyosiy strategiyasining markazida turibdi. "Inson Qadri uchun" tamoyili davlat siyosatining barcha yo'nalishlarida asosiy prinsip sifatida qaralmoqda. Bu tamoyil asosida kambag'allikni qisqartirish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish va manzilli yordam mexanizmlarini joriy etish ishlari keng ko'lamda amalga oshirilmoqda.

"Ijtimoiy davlat" tushunchasi "Inson qadri" tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu g'oyaning tub negizida, avvalo, inson qadrini ulug'lash, aholiga xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam. Ijtimoiy davlat har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitini yaratib beradi. U ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish bo'yicha samarali siyosat olib boradigan davlat modelidir.

Shuningdek, ijtimoiy davlat muhtojlarga uy-joy, yashash uchun zarur bo'lgan iste'mol tovarlarining eng kam miqdori belgilab qo'yilishini nazarda tutadi. Shaxs va uning oilasi munosib hayot kechirishi uchun etadugan ish haqi, bandlikni ta'minlash, xavfsizlik mehnat sharoitini yaratish, kambag'allikni qisqartirishni talab qiladi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda aholi turmush darajasini yuksaltirish, bandlikni ta'minlash, kafolatlangan sifatli ta'lim, malakali tibbiy yordam, barcha uchun teng imkoniyatlar yaratish, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar zahirida ham ana shunday ezgu maqsad mujassam.

So'nggi yillarda ijtimoiy sohada olib borilayotgan islohotlar, xususan, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" mexanizmlarining joriy etilishi aholining zaif qatlamlarini manzilli qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan o'zgartirdi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan Yagona ijtimoiy reyestr ijtimoiy yordamning shaffofligi va aniqligini oshirmoqda. Bu esa korrupsion holatlarning kamayishiga, ijtimoiy ishonchning ortishiga va davlat hamda fuqarolar o'rtasida samarali ijtimoiy muloqot shakllanishiga olib keldi.

Bundan tashqari, fuqarolik jamiyati institutlarining faolligi ijtimoiy davlat tamoyillarini amalga oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlari, mahalla tizimi va jamoatchilik kengashlari ijtimoiy muammolarni aniqlash, yordam ko'rsatish va monitoring qilish jarayonida faol ishtirok etmoqda.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston ijtimoiy davlat konsepsiyasini milliy qadriyatlar, mahalla institutining tarixiy ahamiyati va xalqaro standartlar asosida uyg'unlashtirib rivojlantirmoqda. Bu yondashuv ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlash hamda inson kapitaliga sarmoya kiritishning samarali modelini shakllantirmoqda.

Natijalar tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Ijtimoiy davlat konsepsiyasi faqat iqtisodiy mexanizm emas, balki ijtimoiy ong va siyosiy mas'uliyat madaniyatidir;

- Ijtimoiy adolat va huquqiy kafolatlar davlat siyosatining markazida bo'lishi zarur;

- Yangi O'zbekiston davrida raqamli boshqaruv, manzillilik va fuqarolik jamiyati ishtiroki ijtimoiy davlat modelining yangi bosqichini shakllantirmoqda.

BMT, Xalqaro Mehnat Tashkiloti va Jahon Banki kabi xalqaro tashkilotlar ijtimoiy davlat va ijtimoiy himoya tizimlarini barqaror rivojlanishning asosiy omili sifatida ko'rmoqda. O'zbekiston ham ushbu tajribalarni milliy modelga uyg'unlashtirmoqda. Masalan, raqamli ijtimoiy reyestrlar orqali yordamni manzilliligi ta'minlanmoqda, xalqaro konvensiyalar milliy qonunchilikka implementatsiya qilinmoqda.

Aholining ijtimoiy davlat konsepsiyasidan qoniqish darajasi so'nggi yillarda ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy fikr markazi o'tkazgan so'rovlar shuni ko'rsatadiki, fuqarolarning

FALSAFA

katta qismi manzilli yordam, mahalla tizimi orqali qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy xizmatlarning shaffofligini yuqori baholamoqda.

XULOSA

Ijtimoiy davlat fenomeni davlat va jamiyat munosabatlarining eng muhim konseptual asoslaridan biri hisoblanadi. U faqat iqtisodiy rivojlanish emas, balki ijtimoiy barqarorlik, adolat va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Yangi O'zbekiston sharoitida ijtimoiy davlat g'oyalari tobora keng amaliyotga joriy etilmoqda. Bu jarayon mamlakatda ijtimoiy adolatni mustahkamlash, aholining farovonligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun mustahkam asos yaratmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aristotel. (2004). *Siyosat*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
2. Rawls, J. (1999). *A Theory of Justice*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Sen, A. (1999). *Development as Freedom*. Oxford: Oxford University Press.
4. Nussbaum, M. (2011). *Creating Capabilities: The Human Development Approach*. Harvard University Press.
5. Esping-Andersen, G. (1990). *The Three Worlds of Welfare Capitalism*. Princeton: Princeton University Press.
6. Barr, N. (2012). *The Economics of the Welfare State* (5th ed.). Oxford: Oxford University Press.
7. Devereux, S., & Sabates-Wheeler, R. (2004). *Transformative Social Protection*. IDS Working Paper, 232. Brighton: Institute of Development Studies.
8. Mkandawire, T. (2005). Targeting and universalism in poverty reduction. *Social Policy and Development Programme Paper*, 23. Geneva: UNRISD.
9. Hickey, S., Lavers, T., Niño-Zarazúa, M., & Seekings, J. (Eds.). (2019). *The Politics of Social Protection in Eastern and Southern Africa*. Oxford: Oxford University Press.
10. Constitution of the Republic of Uzbekistan. (2023). Tashkent: Adolat.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2022–2026*. Toshkent.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). *Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-4896-son qarori*. Toshkent.
13. United Nations Development Programme (UNDP). (2021). *Human Development Report 2021/2022: Uncertain Times, Unsettled Lives*. New York: UNDP.
14. International Labour Organization (ILO). (2020). *World Social Protection Report 2020–22*. Geneva: ILO.
15. World Bank. (2022). *Social Protection for Recovery: Uzbekistan Country Report*. Washington, DC: World Bank.
16. UNICEF. (2021). *Social Protection and Inclusion in Central Asia*. New York: UNICEF.
17. OECD. (2018). *The Governance of Inclusive Growth*. Paris: OECD Publishing.